



A LOOK AT THE UZBEKISTAN PRESS IN THE POST-WORLD WAR II PERIOD

Dilafruz R. Atamuratova

Candidate of Historical Sciences, Associate Professor

Department of History

Urgench State University named after Abu Rayhan Beruni

E-mail: atamuratovadilafruz@gmail.com

Urgench, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: press, newspaper, periodical, column, publishing house, article, news, joint issues.

Received: 08.08.25

Accepted: 09.08.25

Published: 10.08.25

Abstract: In the post-war period, Uzbek newspapers paid great attention not only to the propaganda of communist "initiatives" of the population engaged in production, but also to the popularization of the experience of party organizations in strengthening ideological work. The main news that was constantly covered in the press was related to agriculture, with special attention paid to news from the cotton fields. Not a single piece of news related to seasonal work from sowing to harvesting cotton in each region, as well as to the SMT, which played a key role in the implementation of this work, was left without attention. The article examines the processes covered in the press of Uzbekistan after the Second World War, the influence of political and economic events on the press, the efforts of newspapers to organize joint issues, as well as the content of these issues, which were of key importance at the level of state importance.

IKKINCHI JAHON URUSHIDAN KEYINGI DAVRLARDA O'ZBEKISTON MATBUOTIGA BIR NAZAR

Dilafruz R. Atamuratova

PhD, dotsent

Tarix kafedrası

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti

E-mail: atamuratovadilafruz@gmail.com

Urganch, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: matbuot, gazeta, davriy nashr, rukn, nashriyot, maqola, xabar, qoʻshma sonlar.

Annotatsiya: Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrlarda nazarida Oʻzbekiston gazetalari ishlab chiqarishda band boʻlgan aholining kommunistik “tashabbus”larini targʻib qilish bilan cheklanib qolmay, mafkuraviy ishlarni kuchaytirish boʻyicha partiya tashkilotlari tajribasini ommalashtirishga katta eʼtibor berdi. Matbuotda doimiy yoritilib borilgan eng asosiy xabarlar qishloq xoʻjaligiga oid boʻlgan, ayniqsa paxta dalalaridan xabarlarga alohida eʼtibor qaratilgan. Har bir viloyat miqyosida paxta ekilgandan yigʻib olingunga qadar boʻlgan mavsumiy ishlar, bu ishni amalga oshirishda asosiy rolni bajaruvchi MTSlar bilan bogʻliq boʻlgan har qanday xabar chetda qolmagan. Maqolada Oʻzbekiston matbutida Ikkinchi jahon urushidan soʻng matbuotda yoritib borilgan jarayonlar, siyosiy-iqtisodiy ahamiyatga ega boʻlgan voqealarning matbuotga taʼsiri, gazetalarning qoʻshma sonlar tashkil etish boʻyicha harakatlar va bu sonlarning mamunidan kelib chiqqan holda davlat ahamiyati darajasida asosiy oʻrinlarda turgan voqealarning mazmun-mohiyati koʻrib chiqildi.

ВЗГЛЯД НА ПРЕССУ УЗБЕКИСТАНА В ПОСЛЕВТОРОЙ МИРОВОЙ ВОЕННОЙ ПЕРИОД

Дилафруз Р. Атамуратова

Кандидат исторических наук, доцент

Кафедра истории

Ургенчский государственный университет имени Абу Райхана Беруни

atamuratovadilafruz@gmail.com

Ургенч Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: пресса, газета, периодическое издание, рубрика, издательство, статья, новость, совместные выпуски.

Аннотация: В послевоенный период узбекские газеты уделяли большое внимание не только пропаганде коммунистических «инициатив» населения, занятого в производстве, но и популяризации опыта партийных организаций по усилению идеологической работы. Основные новости, которые постоянно освещались в прессе, были связаны с сельским хозяйством, особое внимание уделялось новостям с хлопковых полей. Не оставалась без внимания ни одна новость, связанная с сезонными работами от посева до уборки хлопка в каждом регионе, а также с МТС, которая играла

ключевую роль в реализации этой работы. В статье рассматриваются процессы, освещаемые в прессе Узбекистана после Второй мировой войны, влияние событий политического и экономического значения на прессу, усилия газет по организации совместных выпусков, а также содержание этих выпусков, имевших ключевое значение на уровне государственной важности.

Kirish

Davr nuqtai nazarida O'zbekiston gazetolari ishlab chiqarishda band bo'lgan aholining kommunistik "tashabbus" larini targ'ib qilish bilan cheklanib qolmay, mafkuraviy ishlarni kuchaytirish bo'yicha partiya tashkilotlari tajribasini ommalashtirishga katta e'tibor berdi. Surxondaryo viloyatidagi sholi yerlarini o'zlashtirish bo'yicha "Lenin bayrog'i" viloyat gazetasida ilgari surilgan fikrlar, 1963-yilda Xorazm va Qoraqalpog'iston matbuotida ham o'z aksini topdi. Ya'ni, Bu jarayon Surxondaryo, Xorazm va Qoraqalpog'iston respublika gazetalarida keng yoritildi. Ushbu viloyat gazetolari "Do'stlik va qardoshlik – bebaho boylik" shiori ostida qo'shma sonlar chiqarishni boshladi. 1963 yil aprel oyida "Хорезмская правда" va "Советская Каракалпакия" gazetolari o'zlarining qo'shma gazetalarini ikki viloyatning 7 yillik rejani bajarish bellashuviga bag'ishladilar. O'z sahifalarida "Qo'shniga madadkor", "Qo'shning yeri o'zganiki emas" rukni ostida Amudaryoning quyi oqimi boyliklaridan birgalikda foydalanish bo'yicha viloyatlar va respublikaning sa'y-harakatlarini birlashtirish bo'yicha takliflar berilgan. Unda 900 ming gektar yangi sug'oriladigan yerlarni o'zlashtirish va sholichilikni tashkil etish rejalashtirilgan edi, bu esa 1965 yilda 28 million pud sifatli sholi olish imkonini berishi mumkinligi ilgari surilgan [1]. Respublika gazetolari "Qizil O'zbekiston", "Правда Востока", "O'zbekistoni surx", "Yosh leninchi", "Комсомолец Узбекистана", viloyat gazetolari "Kommunist", "Андижанская правда", "Kommuна", "Ферганская правда", "Lenin yo'li", "Ленинский путь" (Samarqand) va boshqa matbuot nashrlari qishloq xo'jaligi ilg'orlari sanalgan mexanizatorlar va injenerlar bilan qishloq xo'jaligi hilan band kolxoz va sovxozlarda yillik belgilangan rejani bajarish yuzasidan joylarda matbuot mutaxassislari, ya'ni korrespondentlar bilan tekshiruvlarni ham uyushtirib turganlar [3]. Yoki, Farg'ona viloyati gazetalarida alohida mexanik-haydovchilar erishgan yutuqlarga bag'ishlangan maxsus varaqalar chop etish yo'lga qo'yildi. "Toshkent haqiqati", "Ташкентская правда", "Lenin yo'li", "Ленинский путь", "Ленинское знамя", "Советская Бухара" va boshqa viloyat gazetalarida paxta teruvchi mashina haydovchilari haqida ko'plab qiziqarli maqolalar, reportajlar, suratlar e'lon qilindi [8].

Tadqiqotning usullari

Maqola umum qabul qilingan tarixiy metodlar: tarixiylik, manbaviy, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, xolislik, tizimlashtirish asosida yoritilgan.

Natijalar

Bu davr matbuotida gazetalararo qo'shma sonlar tez-tez nashr qilinishi kuzatiladi. Jumladan, Respublika gazetolari tahririyatlari keng ko'lamga ega bo'lgan 7 yillik (1959-1965-yillar misolida) tanlovning ommaviyligini ta'minlashga katta e'tibor qaratdilar. Masalan, 1964-yil 31-martda "Правда Востока", "Kommunistik Tojikiston", "Советская Киргизия" va "Туркменская искра" gazetalarida paxtachilikda kompleks mexanizatsiyani joriy etish tajribasiga bag'ishlangan qo'shma soni chop etildi. Shuningdek, 1964 yil avgust oyida "Yosh leninchi" (O'zbekiston), "Komsomoli Tojikiston", "Leninchi yosh" (Qirg'iziston), "Yash kommunist" "Туркмения" yoshlar gazetolari Toshkentda yosh mexanizatorlarning IV Butunittifoq yig'ilishi ochilishiga bag'ishlangan qo'shma sonini chop etdilar.

Respublika matbuotida shahardan qishloqqa homiylik yordami ko'rsatish masalalari keng yoritildi. Gazetalar o'zlarining ko'plab maqolalarida sanoat korxonalari ishchilari kolxoz va sovxozlarni birinchi darajali texnika, mineral o'g'itlar, mutaxassis kadrlar bilan ta'minlabgina qolmay, balki paxtachilik va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining boshqa tarmoqlarini yuksaltirish yo'lidagi kurashda bevosita ishtirok etib, qanday yordam ko'rsatgani haqida xabarlar bilan chiqdilar. Bu davrda gazeta va jurnallarda dasht, Markaziy Farg'onaning o'zlashtirilmagan yerlari, Sherobod va Qarshi cho'llarini o'zlashtirishga bag'ishlangan ko'plab maqolalar, reportajlar, ocherk va hikoyalar chop etildi. Matbuot yangi yerlarni o'zlashtirish bo'yicha olib borilayotgan ishlar chinakam ommaviy harakatga aylanganini qayta-qayta tushuntirdi. "Qizil O'zbekiston" gazetasining 1962 yil 16 sentabrdagi "Dasht kengliklari – "oq oltin" xazinasi" degan umumiy shiori ostidagi nashrida 13 ta maqola, ocherk, yozishmalar, 6 ta fotosuratlar joylashtirilgan. Gazeta shunday deb yozgan edi: "Dasht kengliklaridan O'zbekiston SSR 650 ming gektar, Qozog'iston SSR 300 ming va Tojikiston SSR 150 ming gektar yerni o'zlashtiradi" [4]. "Leninskoe znamya" va "Сирдаринская правда" gazetalarining qo'shma soni Surxondaryo viloyati Sherobod cho'lini o'zlashtiruvchilari tajribasini o'tkazishda muhim rol o'ynadi.

Matbuotda yirik suv inshootlarining qurilishi to'g'risida doimiy maqola, xabarlar hamda yangiliklar bosib borilgan. Matbuotda O'zbekistonda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hayot, siyosiy-g'oyaviy jarayonlar, qishloq xo'jaligining safarbarligi, Ukraina, Belorussiya va boshqa respublikalar korxonalari jamoalari ish tajribasining faol targ'ibotchisi bo'lishiga qaramasdan, 1959-yilning 18-19 mayda o'tkazilgan O'zbekiston KP MKning XII plenumida respublikaning markazi nashrlaridan "Qizil O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetolari gazetalarda ittifoq respublikalari o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar, sovet xalqlarining hamkorligi va o'zaro yordami

qoniqarli tarzda yoritilmagani, xalqlar do'stligini yanada mustahkamlash, milliy madaniyatlarni o'zaro boyitish masalalari yetarlicha yoritilmaganligi tanqid qilindi.

Muhokama

Matbuotda Markaziy Osiyo respublikalari Qozog'iston SSR, Turkmaniston SSR, Qirg'iziston SSR, Tojikiston SSRda sodir bo'layotgan jarayonlar ham yoritib borilgan. Jumladan, "Правда Востока" gazetasining "Xalqlar-birodarlar" maqolasida Qirg'izistonda ko'mir sanoatining rivojlanishi, rangli metall ishlab chiqarishning o'sishi O'zbekiston sanoati va transporti uchun katta ahamiyatga ega ekanligi aytilgan. Qirg'izistonni sanoatlashtirishda O'zbekiston katta rol o'ynadi. Maqolada, shuningdek, yaqin orada Qirg'iziston va O'zbekiston chegarasida joylashgan Norin daryosida qurilayotgan Uchqo'rg'on GESi energiyasi, sug'orish uchun mo'ljallangan ulkan suv zaxiralari O'zbekiston va Qirg'iziston sanoati va qishloq xo'jaligini yanada rivojlantirishga yo'naltirilishi ta'kidlangan [7]. "Qizil O'zbekiston" gazetasida Sovet O'zbekistonining barcha xo'jalik hayoti rishtalari bilan chambarchas bog'langan Turkmaniston, Qozog'iston va Tojikiston haqidagi materiallar bosildi. Aniq faktlarga asoslanib, ular o'zbek xalqining Kavkazorti va Boltiqbo'yi respublikalari xalqlari bilan ajralmas qardoshlik do'stligi haqida mazmunli so'zlab berdilar. "Kommuna" va "Ферганская правда" gazetalarining Farg'onada azotli o'g'itlar zavodi qurilishi haqidagi materiallari Markaziy Osiyo davlatlari do'stligining o'ziga xos namoyishiga yorqin misol bo'la oladi [5]. Bosma maqolalarda Belarus, Ukraina, Ozarbayjon, Gruziya, Qozog'iston, Tojikiston, Qirg'iziston, Moldova, Turkmaniston, Litva, Estoniya, Latviya kabi davlatlar bilan iqtisodiy aloqalar haqida so'z boradi [6]. Buxorodan tortilgan po'lat gaz quvuri Xorazmga yetib kelganida viloyatlardagi "Buxoro haqiqati" va "Xorazm haqiqati" gazetalari ushbu muhim voqeaga "Xorazmda Buxoro mash'alasi" umumiy nom ostida qo'shma son bag'ishladi. Gazetaning birinchi sahifada "Parol: Buxoro – Ural" tahririyati nomi bosilgan. Qo'shma son 2000 km uzunlikdagi buyuk quvur liniyasini sovuq va issiqda, kecha-yu kunduz, qum va daryolar bo'ylab yotqizgan quruvchilarga bag'ishlanib, maqolada A. Ivanov, F. Vasilenov, M. Belyanov, I. Hikmatov, I. Ilyin va boshqalar tilga olinadi. 1963-yild aqurilishi tugallangan "Do'stlik" trassasiga ham bag'ishlangan gazetalarning o'zaro qo'shma sonlari nashr qilingan. "Qizil O'zbekiston", "Правда Востока", "Buxoro haqiqati", "Советская Бухара" gazetalarining 1963-yil 17-noyabrdagi soni qo'shma son sifatida nashr qilindi. KPSSning MK 1963-yilgi plenumi madaniyatlaro munosabatlarda matbuotning rolini yuqori baholadi [9]. 1963-yil 24-oktabrda "O'zbekistonda rus adabiyoti va san'atining o'n kunligi" ish boshlaydi. Unda 300 mingdan ziyod odam ishtirok etgan 163 badiiy kechalar, 60 konsertlar va teatr namoyishlari tashkil qilinadi. Respublika va viloyatlar gazetalari jumladan "Lenin yo'li", "Ленинский путь" (Samarqand), "Buxoro haqiqati", "Советская Бухара", "Kommuna", "Ферганская правда", "Xorazm haqiqati" gazetalari bu voqealarni o'z sahifalarida yoritib

bordilar. Gazetalar maqolalar, sharhlar va ma'lumotlarda gazetxonlarga respublika teatrlarida repertuarlari tobora dolzarb bo'lib borayotgan spektakllar to'g'risida muntazam ravishda xabardor qilib bordi. Respublika teatrlari sahnalarida nafaqat o'zbek dramaturglarining pesalari, balki ko'plab ittifoq respublikalari dramaturglarining asarlari namoyish etildi.

Xulosa

Matbuotda doimiy yoritilib borilgan eng asosiy xabarlar qishloq xo'jaligiga oid bo'lgan, ayniqsa paxta dalalaridan xabarlarga alohida e'tibor qaratilgan. Har bir viloyat miqyosida paxta ekilgandan yig'ib olingunga qadar bo'lgan mavsumiy ishlar, bu ishni amalga oshirishda asosiy rolni bajaruvchi MTSlar bilan bog'liq bo'lgan har qanday xabar chetda qolmagan. Hatto ekish jarayonida qaysi tumanlar oldinda-yu qay birlari rejani bajarishda orqada ekanliklari bo'yicha ham ma'lumotlar keltirib borilgan. Bu holatni paxta yig'im-terimi bilan bog'liq jarayonda ham kuzatamiz, yig'im-terim natijalari, qaysi tuman necha foizga "plan"ni bajargani ish boshlangandan matbuot tomonidan xabar berib borilavergan. Paxtadan keyingi o'rinda ekilgan mahsulotlardan biri sholi bo'lib, bunda aynan shu holat takror kelishini ko'ramiz. Yirik inshootlar majmuasi qurilishi bilan bog'liq jarayonlar esa O'zbekiston matbuotining ajralmas bir qismiga aylangan edi go'yo.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. «Колхозно-совхозное производство», 1963, № 11. – С. 24.
2. «Колхозно-совхозное производство Узбекистана», 1963, - № 3. – С. 2.
3. «Кызыл Узбекистан», 13, 20, 27 октября 1962 года.
4. «Кызыл Узбекистан», 26 октября 1962 года.
5. «Кызыл Узбекистан», 1 ноября 1962 года.
6. «Кызыл Узбекистан», 9 и 24 ноября 1962 года.
7. «Правда Востока», 12 мая 1960 года.
8. «Правда Востока», 14 октября 1961 года.
9. «Правда Востока», 20 октября 1963 года.
10. «Совет Ўзбекистони», 15 июл 1965 йил.